


“TASDIQLAYMAN”
Jamoatchilik kengashi raisi


X.R. Mamasaidov
2023-yil 19 - iyul

Jamoatchilik kengashi majlisining navbatdagi

5 -sonli BAYONI

2023-yil 19 - iyul

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: **X.R. Mamasaidov** – vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi
Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha).

KUN TARTIBI:

Jamoatchilik kengashining kelgusi faoliyati va kengash tarkibini yangidan tasdiqlash to‘g‘risida

(X.Mamasaidov, M.Boboyorov, I.Bakirova, N.Mamaraimova, X.Mamasaidov)

Yig‘ilish boshida kengash raisi o‘tgan davr mobaynida hukumatimiz tomonidan davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sherikligini amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari yaratilganligini, shuningdek, davlat organlari faoliyati ochiqqligini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining qonunchilik asoslari shakllantirilganligini ta’kidladi.

Yig‘ilish davomida Muhtaram yurtboshimiz rahbarligida maktabgacha va maktab ta’limi sohasiga alohida e’tibor qaratilayotganligi va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar xususida batafsil to‘xtalib o‘tildi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish, qaror qabul qilish va masalani ko‘rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish orqali davlat organlari rahbarlarining mas’uliyatini oshirish hamda ular faoliyatini natijadorlikka yo‘naltirish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, vazirlik huzuridagi kengash tarkibini yangidan tasdiqlash lozimligi muhokama etildi.

Kun tartibidagi masalalarni muhokama qilish natijasi bo‘yicha yig‘ilish **qaror qiladi:**

1. Kengash raisi X.Mamasaidovning respublikamizda o'tkazilgan ma'muriy islohotlar, vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibini yangidan tasdiqlash to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2.Vazir maslahatchisi (N.Mamaraimova) vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashi tarkibini yangidan tasdiqlash to'g'risidagi taklifni vazirlik rahbariyatiga kiritilishini ta'minlasin.

3. Mazkur yig'ilish qarorining ijrosini nazorat qilishni o'z zimmanda qoldiraman.